

**O‘ZBEK ADABIY TILI VA TALAFFUZ MEYORLARIDA UNLI
HARFLARNING AHAMIYATI**

Ramz Qodirov

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqola “Sahna nutqi” fanida o‘zbek adabiy tili va meyorlari ustida ishlashning pedagogik jarayonlari haqida bo‘lib, talaffuz meyorlari ustida ishlash borasida mavjud unli tovushlarning “i-e-a-o-o‘-u-i metodik tartibi”ga muqobil sifatida “a-o-o‘-u-i-e-a metodik tartibi”ning joriy etilishi va ulardan foydalanish amaliyoti yoritilgan.

Kalit so‘zlar: adabiy til, talaffuz, unli tovush, undosh tovush, alifbo, sheva, so‘z, jumla, gap, matn, nafas, ovoz, bo‘g‘iz, halqum, ovoz paychalari.

O‘zbek tilida talaffuz meyorlari – ona tili va undagi alifbo, unli va undosh, jarangli va jarangsiz tovushlar, hattoki tutuq belgisining to‘g‘ri ifodalanish jarayonidir. Alifbodagi harflar sahna nutqidagi tovushlarni anglatib, talaba-aktyor tomonidan qachonki to‘g‘ri ifodalansa pedagog maqsadga erishgan hisoblanadi. Buning zamirida “qahramonning nutqi tomoshabinga tushunarli yetib borishi” singari teatr san’atining qonuniyati yotadi.

Talaba-aktyorning talaffuzi ustida ish olib borilganda, avvalo uning shevasi inobatga olinadi. Viloyatlar so‘zlashuvdagi o‘ziga xosliklar, ohanglar adabiy til talaffuz meyorlaridan farqlanadi. Bugun radio va televideniye, teatr va kino, ayniqsa o‘qituvchilar faoliyati, kitoblarning adabiy til asoslarida chop etilishi tovushlarning qaysi viloyatda qanday talaffuz etilishidagi farqni ko‘rsatadi.

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

August 8. July 2024

Talaba-aktyor o‘qishga qabul qilingan kundan boshlab sahna nutqi darslari orqali adabiy til meyorlari haqidagi tushunchaga ega bo‘ladi va unga amal qilishni boshlaydi. Misol uchun, ayrim hollarda “o” tovushini “o‘”, “i” tovushini “e” deb talaffuz qiluvchi talaba, dars jarayonlarida “olma” so‘zini “alma” emas, “olma” deb, “eshik” so‘zini “ishik” deb emas, “eshik” deb talaffuz qilish kerakligini anglaydi.

Pedagog bunday hollarda har bir talabaning o‘ziga xos talaffuzidan kelib chiqib, unli tovushlar shakllanishidagi xatolik ildizlarini aniqlaydi va uni to‘g‘rilash uchun chora-tadbirlar ishlab chiqadi. Masalan, ovoz chiqarib o‘qish, xonadosh yoki kursdoshlar bilan gaplashganda adabiy til meyorlariga amal qilish, she‘riy asarlar yodlash.

Adabiy til meyorlariga amal qilish sahna nutqi darslarida charxlanadi. Talaba-aktyor avvalo tovushlarning talaffuzi, keyin so‘zlar, birikma, jumla va gaplar, so‘ng matn hamda katta hajmdagi matnlar ustida ishlash orqali o‘zbek adabiy til meyorlariga amal qilgan holda so‘zlay boshlaydi.

Bu jarayonda unli tovushlarning talaffuz meyorlari muhim ahamiyat kasb etadi. Unli tovushlarning sofliqi shevalardan yoki talaba-aktyorning nutqiy kamchiliklaridan kelib chiqib aniqlanadi. Unli harflar o‘zbek tilining go‘zalligini, ohangdorligini va jozibadorligini ta‘minlovchi tovushlardir.

Tovushlar ustida ishlash jarayoni borasida tadqiqotchilar A.To‘laganov [3], O‘.Nurmuhammedova [2], A.Nosirova [1], M.Xojimatovalarning [4] yondashuviga asosan “unli tovushlarning i-e-a-o-o‘-u-i metodik tartibi” mavjud.

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijasida unli tovushlar ustida ishlashni a-o-o‘-u-i-e-a tartibida olib borish samarali ekanligi isbotlandi. Sababi, tovushlar ustida ishlanganda birinchi talaffuz ifodasi “i” tovushi bilan bajarilishida bo‘g‘iz va halqumga kuch kelishi va natijada ovoz paychalari zo‘riqishi amaliyotda kuzatildi. Bu

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

August 8, July 2024

noqulaylikni bartaraf etish maqsadida “unli tovushlarning a-o-o‘-u-i-e metodik tartibi” tavsiya etiladi.

Tovushlar ustida ishlash jarayonini birinchi “a” tovushi bilan boshlagan talabalarda bo‘g‘iz va halqumning erkinligi, ovoz paychalarining tebranishidagi siqqlikning yo‘qligi, nafasning parvozi qulayligi aniqlandi. Bu holat mavjud unli tovushlarning “i-e-a-o-o‘-u-i metodik tartibi”ga muqobil sifatida unli tovushlarning “a-o-o‘-u-i-e metodik tartibi”ning joriy etilishi samarali ekanligi amaliyotda o‘z isbotini topmoqda.

Shuningdek, go‘dakning ilk talaffuzi A tovushi bilan shakllanadi. Ikkinchidan aksariyat alifbolar A harfidan boshlanadi. Qolaversa kasb nuqtai nazaridan Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand hududlariga hos shevalarda I tovushi o‘rniga E, E tovushi o‘rniga esa I tovushini ishlatish holatlari uchraydi. Lekin, barcha shevalarda A tovushi birdek to‘g‘ri talaffuz etiladi. O va O‘ tovushlarining noto‘g‘ri, buzib talaffuz etish holatlari asosan nutq texnikasining diksiya va orfoepiya qismlari zimmasiga tushadigan ishlar turkumidandir.

Xulosa shuki, bugungi rivojlanib borayotgan zamon talablari har bir sohadan samarali faoliyatni yo‘lga qo‘yishni ko‘zda tutadi. San‘at va pedagogika sohalari ham shular jumlasidandir. Zero, bu ikki soha davlat va jamiyatning kelajagini, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy qiyofasini belgilovchi sohalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosirova A. Sahna nutqi. Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – 224 b.
2. Nurmuhamedova O‘. Sahna nutqi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: O‘DSI bosmaxonasi, 2008. – 164 b.
3. To‘laganov A. Sahna nutqi. Darslik. – Toshkent: Musiqa, 2010. – 326 b.
4. Xodjimatrova M.K. Sahna nutqi. Darslik. – Toshkent: Fan va ta‘lim poligraf, 2021. – 410 b.